



Test bandlovi, qayta rejalashtirish yoki bekor qilish uchun:

Hisob yaratish

Tizimga kirish

- Foydalanuvchi nomi esdan chiqdimi?
- Parol esdan chiqdimi?

[Test markazi topish](#)

[Testlarni ko'rish](#)

[Test topshirishdan oldin](#)

[So'rovlar](#)

JBMA | Yaponiya binolarga xizmat ko'rsatuvchilar uyushmasi (JBMA) test sinovi

Binoni tozalash ishlarini boshqarish mutaxassisligi bo'yicha malakali ishchilarni (i) baholash testi haqida

Bu test sinovi Yaponiyada "Maxsus malakali ishchi (i) (binoni tozalash ishlari boshqaruvi)" sifatida ishlashni istaganlar uchun malaka test sinovidir.

Bu test sinovi binoni tozalashni boshqarish sohasidagi ko'nikma va bilimingizni tekshiradi.

Test topshirish talablari

- Test kuni kamida 17 yoshda bo'lish. Ammo Indoneziya fuqarolari test kuni kamida 18 yoshda bo'lishlari kerak.
- Yaponiyada test topshirayotganlar amaldagi yashash maqomiga ega bo'lishlari kerak.

Test tarkibi va davomiyligi

Test sinovi yozma va amaliy testdan iborat. Testlarning hammasi yapon tilida o'tkaziladi.

Yozma test: 20 ta savol (o'tish uchun umumiy ballning 60% yoki undan ko'prog'ini to'plash talab qilinadi),

Davomiyligi: 20 daqiqa

Amaliy test: 30 ta savol (o'tish uchun umumiy ballning 60% yoki undan ko'prog'ini to'plash talab qilinadi),

Davomiyligi: 30 daqiqa

Jami 50 daqiqalik test sinovidan tashqari, maxfiylik kelishuviga rozilik bildirishingiz, o'quv qo'llanmani ko'rib chiqish hamda 10 daqiqalik so'rovnomanini to'ldirishingiz talab qilinadi.

Test to'lovlari

Yaponiyada test topshirayotganda: 4400 yena (jumladan, 10% iste'mol solig'i)

Yaponiyadan tashqarida test topshirganda: 30 AQSH dollari

Onlayn ro'yxatdan o'tish va bandlashdan test topshirishgacha bo'lgan tartiblar

1-qadam: Yangi foydalanuvchini ro'yxatdan o'tkazish (hisobni ro'yxatdan o'tkazish)

Pearson VUE bilan binoni tozalash boshqaruvi mutaxassisligi bo'yicha malakali ishchilarni (i) baholash testini topshirish uchun foydalanuvchi hisobi ro'yxatdan o'tkazilishi lozim. "Hisob yaratish" tugmasini bosib va foydalanuvchi sifatida ro'yxatdan o'tish ko'rsatmalarini bajaring. Allaqachon hisobingiz bo'lsa, 2-bosqichga o'ting.

*Ro'yxatdan o'tish vaqtidagi ism-sharifingiz test kuni test markazida taqdim qilingan shaxsingizni tasdiqlovchi hujjatdagidan farq qilsa, test sinovlariga kirishga ruxsat berilmaydi.

Eslatma:

Arizalar 2026-yil 31-martgacha qabul qilinadi. 2026-yil 1-apreldan boshlab tizim orqali bandlov qilish mumkin bo'lsa-da, ushbu sanada yoki undan keyin bandlov qilmang.

2-qadam: Test bandlovi

Test sinovini rejalashtirish uchun 1-bosqichda ro'yxatdan o'tgan foydalanuvchi nomi va parolni kiriting.

*Vaucheringiz bo'lsa, to'lov va hisob-kitob ma'lumotlarini kiritayotganda "Vaucher yoki promokod kiritish" tugmasini bosib, vaucher raqamingizni kiritib, "Qo'llash" tugmasini bosib va bandlovni yakunlang.

*Bandlov yakunlangandan keyin bandlov tasdiqlanganligi haqida elektr pochta orqali xat olasiz.

Bandlov qilish, sanani o'zgartirish yoki bekor qilish uchun muddatlar

- **Bandlov muddati:** Tanlangan test sanasidan bir kun oldin, soat 11:59 p.m. da
- **Sanani o'zgartirish/bekor qilish muddati:** Hozirda band qilingan sana va vaqtdan 24 soat oldin

Eslatma: Har bir yakuniy muddat sanasi – onlayn bandlov saytidagi oxirgi muddat hisoblanadi. Mijozlarga yordam xizmati orqali amalga oshirilgan bandlovlar, sana o'zgartirishlar va bekor qilishlar tegishli muddatlarda va mijozlarga xizmat ko'rsatish bo'limi ish vaqtida amalga oshirilishi kerak. Belgilangan muddatdan keyin bandlovlarni o'zgartirish yoki bekor qilish imkonsiz.

To'lov usuli

Test to'lovini faqat kredit karta va vaucher orqali amalga oshirish mumkin.

- Kredit karta
VISA, Master, JCB va AMEX kartalari qabul qilinadi.
- Oldindan to'langan vaucher
Test to'lovi kompaniya yoki maktab zimmasida bo'lsa, oldindan to'langan vaucharlardan foydalanish mumkin. Minimal xarid miqdori – 10 ta test (10 kishi). Oldindan to'langan vaucharlarni xarid qilish haqida batafsil bilish uchun quyidagi havolaga o'ting. Oldindan to'langan vaucher xarid qilingandan keyin vaucher raqamini test topshirayotgan har bir kishiga berib chiqing.
(Test Yaponiyada topshirilsa) Vaucher do'koni *Minimal xarid: 10 ta test
(Test Yaponiyadan tashqarida topshirilsa) Vaucherlar sotib olish *Minimal xarid: 1 ta test

3-qadam: Testga tayyorgarlik

Test kunidagi tayyorgarlik va jarayonlar haqida bilish uchun quyidagi sahifalarga qarang.

- Test sinovidan oldin nimalarni tekshirish kerak
Testdan oldi nazorat ro'yxati (Yapon tilida)
Test topshiruvchilar uchun foydali resurslar (Ingliz tilida)
- Test kuni test markazidagi umumiy tartiblar (video)
Test tartiblari (Yapon tilida)
Pearson VUE bilan test topshirishda nimalar kutiladi(Ingliz tilida)
- CBT versiyasi demo testi
Demo test (Yapon tilida)

4-qadam: Test topshirish

Yetib kelish vaqti

Test kuni ro'yxatdan o'tish jarayonlarini yakunlash uchun test boshlanishidan kamida 15 daqiqa oldin test markaziga yetib keling. Kech kelganlar test sinovlariga kiritilmaydi va ularga test to'lovi qaytarilmaydi.

Nimalar olib kelish kerak

Testga kirish vaqtida **bitta amaldagi shaxsni tasdiqlovchi hujjat taqdim qilinishi shart**. Tafsilotlar uchun quyidagi sahifaga qarang. Bandlovda ko'rsatilgan ism-sharif shaxsni tasdiqlovchi hujjatidagidan farq qilsa, u shaxs test sinovlariga kiritilmaydi. Ism-sharif mos kelmaganligi sababli test tasdiqlanmasa, test to'lovi qaytarilmaydi.

(Yaponiyada test topshirayotgan bo'lsangiz) Shaxsni tasdiqlovchi hujjatlar

*Yaponiyada test topshirayotgan bo'lsangiz, pasportingizni olib keling.

(Yaponiyadan tashqarida test topshirayotgan bo'lsangiz) Global ID siyosati 1

*Pasportingiz bo'lsa, o'zingiz bilan olib keling.

Test xonasiga hech qanday shaxsiy buyumlarni olib kirishga ruxsat berilmaydi. Test davomida kerak bo'lmaydigan buyumlarni olib kelmaslikni tavsiya qilamiz.

Testga kirgizish peshtaxtasida test vaqtida qaydlar qilish uchun laminatsiyalangan oq daftar va ruchkalar (suyuq siyohli tez quriydigan ruchkalar) taqdim qilinadi. Oq daftar va ruchkalar testdan keyin yig'ib olinadi.



Oshkor qilmaslik kelishuvi (NDA)

Test markazida test topshirgandan keyin oshkor qilmaslik kelishuviga (NDA) rozilik bildirishingiz kerak. NDA kelishuvi – bu eng avvalo savollar va javoblar tarkibini uchinchi shaxslarga oshkor qilmaslik haqidagi kelishuvdir. Rozilik bildirmasangiz, testni boshlashingizga ruxsat berilmaydi. Rozilik bildirmasangiz va testni topshirmasangiz, test to'lovi qaytarilmaydi. Shartnomada keltirilgan har qaysi taqiqlangan harakat testdan keyin tasdiqlansa, sertifikatlash organi tomonidan sertifikatlash bekor qilinishi yoki kelajakda testlarni topshirishingiz taqiqlanishi mumkin.

5-qadam: Test natijalari

Test natijalari quyidagi ikki usulda sizga xabar qilinadi.

- Baholar hisoboti

Bevosita test topshirganingizdan keyin test markazida chop etilgan baholar hisobotini (o'tdi/o'tmadi) olasiz.

Xuddi shu baholar hisobotini keyinroq Pearson VUE foydalanuvchisi hisobining sahifasida ham topish mumkin.

Eslatma: Baholar hisoboti o'tganlik sertifikati hisoblanmaydi.

- O‘tganlik sertifikatini

Test topshirgan test topshiruvchi va qabul qiluvchi muassasa o‘rtasida mehnat shartnomasini tuzish qarori qabul qilingandan keyin imtihon topshiruvchi sertifikat olish uchun ariza topshiradi va sertifikat olish uchun 11000 yena (jumladan, 10% iste‘mol solig‘i) to‘laydi. JBMA keyin qabul qiluvchi muassasaga testdan o‘tganlik sertifikatini beradi.

Ehtiyot choralari

Nohalol amallar yoki vositalar bilan test topshirishga uringan yoki topshirgan shaxs besh yilgacha muddatga test topshirishdan chetlashtiriladi.

Nohalol amallar yoki vositalar bilan test topshirgan bo‘lsangiz va test sinovidan o‘tsangiz, sertifikat bekor qilinadi va sizdan o‘tganlik sertifikatini qaytarish talab qilinadi. Test sinovi va o‘tganlik sertifikatini to‘lovlari qaytarilmaydi.

Shaxsiy ma’lumotlar

Test uchun ariza topshirish vaqtida yoki test markazida olingan shaxsiy ma’lumotlar JBMA shaxsiy ma’lumotlarni muhofazalash qoidalariga muvofiq, testni o‘tkazish, testdan o‘tganlik sertifikatini berish hamda belgilangan ko‘nikmalar tizimini ko‘rib chiqishda ishlatiladi. Shaxsiy ma’lumotlar Yaponiyadagi yoki mamlakatingizdagi boshqaruv idoralariga uzatilishi mumkinligini inobatga oling.

– Tegishli havolalar

Yaponiya binolarga xizmat ko‘rsatuvchilar uyushmasi (JBMA)

Test bandlov qilish haqida umumiy savol-javoblar

Test kuni test markazidagi tartiblar

– So‘rovlar

Ma’lumot uchun so‘rovlar uchun aloqa nuqtasi so‘rovning turiga qarab farq qilishini inobatga oling.

So‘rov tafsilotlari	Kontakt tafsilotlari
● Hisobni ro‘yxatdan o‘tkazish, bandlov tartib-qoidalar va tugallangan bandlovlar haqida elektron pochta orqali xabarnoma ● Shaxsni tasdiqlovchi hujjatlar ● Hisob ro‘yxatdan o‘tkazilgandan keyin ism-sharifni o‘zgartirish ● Test markazlarining mavjudligi	Pearson VUE mijozlarga yordam xizmati https://www.pearsonvue.com/us/en/test-takers/customer-service/email.html
● Test kontenti ● Malakalar va talablar ● Test natijalari ● O‘tganlik sertifikatlarini berish	Yaponiya binolarga xizmat ko‘rsatuvchilar uyushmasi (JBMA) El. pochta: tokuteiginou@j-bma.or.jp